



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS**  
**OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (998) 55-520-08-08, e-mail: devonxona@edu.uz, edu@exat.uz, veb-sayt: www.edu.uz

2025-yil 6-noyabr

02/12-4/1-9519-son

**SHOSHILINCH**

**Oliy ta’lim muassasalari rektorlari  
va filiallar direktorlariga**

**Nusxa: O‘zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirligi**

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2025-yil 16-oktabrdagi 01-18-08-08/23893-sonli xatiga muvofiq, Yaponiya Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi dasturi doirasida Nagoya va Gifu universitetlarida tahsil olish va ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun e’lon qilingan stipendiya tanlovi to’g’risida ma’lumot yuborilmoqda.

Ushbu stipendiyalar “Forefront Studies Program” dasturi doirasida Nagoya va Gifu universitetlari tomonidan fuqarolik va atrof-muhit muhandisligi (*Civil and Environmental Engineering*) ta’lim yo’nalishi bo’yicha taqdim etiladi.

O‘zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasining ma’lumotiga ko’ra, nomzodlar respublika OTMlari o’qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, magistrantlari, talabalari qatoridan bo’lishlari va muayyan talablarga javob berishlari lozim, ular hujjatlar natijalari asosida tanlab olinadilar.

Ushbu tanlovda (**magistratura, doktorantura**) ishtirok etish istagida bo’lgan nomzodlar arizalar va barcha zarur hujjatlarni ilova qilgan holda, **2025-yil 28-noyabrga qadar on-line tarzda** taqdim etishlari kerak.

Stipendiyalar bilan bog’liq xarajatlar (*o’qish, yashash va tibbiy sug’urta*) Yaponiya hukumati tomonidan qoplanadi.

Mazkur stipendiya dasturi to’g’risidagi batafsil ma’lumot bilan <https://www.civil.nagoya-u.ac.jp/ceeipo/index.html>, <https://www.civil.nagoya-u.ac.jp/forefront/admission.html> veb-sahifalarida tanishish mumkin.

Ma’lumot tariqasida yuborilmoqda.

**Vazirning birinchi  
o‘rinbosari**



**S. Radjabov**